



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 22-fevral

88-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 20-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tahliliy va tadqiqotchilik faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 10-fevraldagi PQ–48-son qarori ijrosi haqida”gi 80-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 31-dekabrda “Mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanish sohalaridagi strategik tahlil va tadqiqot qilish faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-467-son qarori ijrosini samarali tashkil etish hamda mamlakatda tahlil va tadqiqot faoliyatini amalga oshirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tahliliy va tadqiqotchilik faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 10-fevraldagi PQ–48-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 20-fevraldagi 80-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 20-fevraldagi 80-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-fevraldagi PQ–48-son qarori bilan:

Tahliliy va tadqiqot tuzilmalari faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash (keyingi o‘rinlarda – Muvofiqlashtiruvchi kengash) huzurida alohida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) tashkil etilganligi;

belgilanishicha, Jamg‘arma mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasida alohida ochilgan hisobraqamlarda jamlanishi va Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan belgilangan tartibda sarflanishi;

belgilanishicha:

a) quyidagilar Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish manbalari hisoblanishi:

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining 25 million AQSH dollari miqdoridagi bir martalik beg‘araz to‘lovi;

xalqaro, xorijiy va mahalliy tashkilotlarning grantlari va homiylik mablag‘lari;

Jamg‘armaning vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larini tijorat banklari depozitlariga joylashtirishdan tushadigan daromadlar;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar;

b) Jamg‘arma mablag‘lari quyidagilarga yo‘naltirilishi:

Muvofiqlashtiruvchi kengashning faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlarni amalga oshirish;

tahliliy materiallarni tayyorlash va tadqiqotlarni o‘tkazish uchun grantlar ajratish;

ekspertlik, tadqiqotga oid va boshqa xizmatlarni ko‘rsatuvchi mahalliy va xorijiy jismoniy va yuridik shaxslar xizmat haqi uchun to‘lovlarni amalga oshirish;

tahlil va tadqiqot yo‘nalishida tuzilgan vaqtinchalik loyiha guruhlari faoliyatini moliyalashtirish;

ijtimoiy so‘rovlar va jamoatchilik fikrini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlarni amalga oshirish;

tahlilchilar va mutaxassislarni o‘qitish va ularning malakasini oshirish;

nashrlar, adabiyotlar, ma'lumotlar bazalari va tadqiqotlar natijalarini tayyorlash va xarid qilish hamda ularga obuna bo'lish;

ilmiy-tadqiqot sohasidagi konferensiyalar va boshqa tadbirlarni tashkil qilish hamda ularning ishida ishtirok etish xarajatlarini to'lash;

Muvofiqlashtiruvchi kengashning faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha boshqa xarajatlarni qoplash;

Jamg'arma mablag'lari maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazorat Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan amalga oshirilishi;

Jamg'armaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida:

Jamg'arma mablag'larini milliy va xorijiy valyutalarda bank depozitlariga joylashtirish;

grantlar va beg'araz texnik ko'mak vositalarini jalb qilish;

jismoniy va yuridik shaxslarga to'lov asosida tadqiqotlar natijalari va ma'lumotlar bazalaridan foydalanish hamda tadbirlarda ishtirok etish imkoniyatlarini berish Muvofiqlashtiruvchi kengashga ruxsat berilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya- iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov